



A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE HARMONY BETWEEN RELIGIOUS AND SECULAR VALUES IN ENSURING SOCIAL STABILITY

Naima Inomidinova Zaynobidinova

Senior Lecturer of the Department of Philosophy and Historical Sciences

Candidate of Philosophical Sciences

Namangan State Pedagogical Institute

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social stability, religious values, secular values, philosophical analysis, value harmony, spiritual security.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article provides a philosophical analysis of the role of harmony between religious and secular values in ensuring social stability. The study examines the moral and spiritual potential of religious values alongside the legal and institutional significance of secular values, highlighting their complementary functions within society. Drawing on the intellectual heritage of Eastern scholars and modern philosophical approaches, the paper substantiates the importance of value balance in promoting social stability, civic solidarity, and spiritual security. The findings are of theoretical and practical significance for developing contemporary socio-spiritual policies.

JAMIYAT BARQARORLIGIDA DINIY VA DUNYOVIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGINING FALSAFIY TAHLILI

Naima Inomidinova Zaynobidinova

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Falsafa fanlari nomzodi

Namangan davlat pedagogika instituti

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat barqarorligi, diniy qadriyatlar, dunyoviy qadriyatlar, falsafiy tahlil, qadriyatlar uyg'unligi, ma'naviy xavfsizlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat barqarorligini ta'minlashda diniy va dunyoviy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda diniy qadriyatlarning axloqiy-ma'naviy

salohiyati hamda dunyoviy qadriyatlarining huquqiy va institutsional ahamiyati yoritilib, ularning jamiyat hayotidagi o'zaro to'ldiruvchi funksiyalari ochib beriladi. Sharq allomalari merosi va zamonaviy falsafiy yondashuvlar asosida qadriyatlar muvozanatining ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik birdamligi va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni asoslanadi. Maqola xulosalari zamonaviy jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy siyosatni takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ГАРМОНИИ РЕЛИГИОЗНЫХ И СВЕТСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА

Наима Иномидиновна Зайнобидинова

Старший преподаватель кафедры философских и исторических наук

Кандидат философских наук

Наманганского государственного педагогического института

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стабильность общества, религиозные ценности, светские ценности, философский анализ, гармония ценностей, духовная безопасность.

Аннотация: В статье с философских позиций анализируется роль гармоничного взаимодействия религиозных и светских ценностей в обеспечении стабильности общества. Рассматриваются нравственно-духовный потенциал религиозных ценностей и институционально-правовая значимость светских ценностей, раскрываются их взаимодополняющие функции в социальной системе. На основе наследия восточных мыслителей и современных философских концепций обосновывается значение ценностного баланса для социальной стабильности, гражданской солидарности и духовной безопасности общества. Материалы статьи имеют теоретическое и практическое значение для совершенствования общественно-духовной политики.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlash masalasi global miqyosda muhim falsafiy, ijtimoiy va madaniy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv, axborot oqimlarining jadallashuvi va turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir sharoitida jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi omillar ko'payib bormoqda. Bunday sharoitda diniy va dunyoviy qadriyatlarining o'zaro munosabati, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va

ahamiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Diniy qadriyatlar insoniyat tarixida axloqiy me'yorlar, ma'naviy kamolot va ijtimoiy birdamlikni shakllantiruvchi muhim omil bo'lib kelgan. Diniy ta'limotlarda inson qadr-qimmatini, adolat, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlar mujassam bo'lib, ular jamiyat a'zolarining xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, dunyoviy qadriyatlar ilm-fan, huquq, demokratiya va erkinlik g'oyalari asosida shakllanib, jamiyatning ratsional rivojlanishini va huquqiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy adabiyotlarda diniy va dunyoviy qadriyatlar ko'pincha qarama-qarshi hodisalar sifatida talqin etilgan bo'lsa-da, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ularning uyg'unlashuvi jamiyat barqarorligi uchun zarur shart sifatida namoyon bo'lmoqda. Diniy qadriyatlarning axloqiy-me'yoriy salohiyati va dunyoviy qadriyatlarning institutsional imkoniyatlari o'zaro uyg'unlashgan taqdirda, jamiyatda ijtimoiy muvozanat, ma'naviy barqarorlik va fuqarolik birdamligi mustahkamlanadi. Ayniqsa, ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlarda diniy bag'rikenglik, dunyoviylik tamoyillari va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Ushbu uyg'unlik ekstremizm, radikalizm va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishda, shuningdek, shaxs va jamiyat manfaatlarini o'rtasida muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat barqarorligida diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligi masalasi falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik hamda dinshunoslik kesishgan nuqtada tahlil qilinadigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ilmiy adabiyotlarda mazkur muammo, avvalo, "qadriyat" tushunchasining ontologik va aksiologik mohiyatini ochish, diniy-axloqiy me'yorlar hamda dunyoviy-huquqiy tamoyillarning ijtimoiy tizimdagi funksiyalarini aniqlash orqali yoritiladi. Tadqiqotchilar jamiyat barqarorligini faqat iqtisodiy-siyosiy mexanizmlar bilan emas, balki ma'naviy birlik, axloqiy me'yorlar va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriy omillar bilan ham izohlash zarurligini ta'kidlaydilar. G'arb falsafasida diniy va dunyoviy qadriyatlar munosabati ko'pincha modernizatsiya, sekulyarizatsiya va fuqarolik jamiyati masalalari bilan bog'liq talqin qilinadi. Masalan, ijtimoiy tartib va axloqiy legitimlikning manbalari haqida so'z yuritilgan ishlarda diniy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy "tayanchi", dunyoviy qadriyatlar esa huquqiy-siyosiy "institutsional kafolati" sifatida ko'rsatiladi. Ayrim konsepsiyalarda (jumladan, kommunikativ-ratsional yondashuvlarda) diniy qarashlar jamiyatning axloqiy resursi sifatida e'tirof etilar ekan, ularni dunyoviy maydonga tarjima qilish, umumiy muloqot tiliga moslashtirish zarurati qayd etiladi. Bu qarashlar diniy va dunyoviy tizimlarni qarama-qarshi qo'yishdan ko'ra, ularning umumiy maqsadi — inson qadr-qimmatini ta'minlash va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Islom falsafasi va Sharq tafakkurida esa diniy va dunyoviy qadriyatlarning uyg'unligi alohida dunyoqarash tamoyili sifatida ko'tarilgan. Sharq allomalari "dunyo" va "din"ni bir-birini inkor etuvchi ikki qutb emas, balki inson kamolotiga eltuvchi yagona ma'naviy yo'lning turli ko'rinishlari sifatida talqin etganlar. Abu Nasr Forobiy ijtimoiy barqarorlik va baxt-saodatga erishishni "fazilatli jamiyat" g'oyasi bilan bog'lab, jamiyatning mustahkamligi adolat, tartib va axloqiy yetuklikka tayanganida yuzaga kelishini asoslaydi. Forobiy qarashlarida siyosiy boshqaruvning ratsionalligi bilan axloqiy fazilatlar uyg'unlashgandagina jamiyatda haqiqiy barqarorlik qaror topishi mumkinligi ilgari suriladi. Abu Ali ibn Sino tafakkurida ham jamiyatni tutib turuvchi ichki asos sifatida axloqiy me'yorlar va aqlning tarbiyaviy kuchi alohida o'rin egallaydi. U inson kamoloti va ijtimoiy hayotning muvozanatini aql-zakovat, tarbiya va axloq bilan bog'lab, ma'naviy qadriyatlar (vijdon, halollik, me'yor) hamda dunyoviy ehtiyojlar (tartibli boshqaruv, mehnat, hamkorlik) bir-birini to'ldirishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv qadriyatlar uyg'unligini shaxs va jamiyat manfaatlari muvozanatining falsafiy asosi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Beruniy ilmiy merosida din va ilm munosabati doimo muhim masala bo'lib kelgan. Uning qarashlarida turli xalqlar madaniyati va e'tiqodiga hurmat bilan yondashish, ilmiy bilish va ma'naviy qadriyatlarni qarama-qarshi qo'ymaslik g'oyasi kuchli. Bu holat jamiyat barqarorligida bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotning muhimligini anglatadi. Beruniy merosi shuni ko'rsatadiki, dunyoviy ilm-fan taraqqiyoti jamiyatni rivojlantirsa, diniy-axloqiy qadriyatlar esa uni ma'naviy jihatdan mustahkamlaydi. Imom Moturidiy ta'limotida esa e'tiqod va aql uyg'unligi g'oyasi yetakchi o'rin tutadi. Moturidiy aqliy dalillash va mas'uliyat tamoyillariga tayanib, dinni tafakkur, adolat va insoniylik bilan hamohang tarzda tushuntirishga intiladi. Bu yondashuv diniy qadriyatlarning radikal talqinlariga qarshi turuvchi, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlovchi falsafiy-resurs sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, jamiyat barqarorligi uchun diniy qadriyatlarning ma'rifiy va axloqiy mazmunini kuchaytirish muhim ekanini ushbu meros asoslaydi. Tasavvufiy tafakkur vakillarida, xususan Bahouddin Naqshband ta'limotida "dil ba yor, dast ba kor" tamoyili din va dunyo uyg'unligini ifodalovchi muhim g'oya sifatida talqin qilinadi. Bu tamoyil shaxsning ichki ma'naviy poklanishi bilan uning dunyoviy mehnat va ijtimoiy mas'uliyatini bir butun holda ko'radi. Mazkur qarash jamiyat barqarorligi uchun ma'naviyat va amaliy faoliyat uyg'un bo'lishi zarurligini ko'rsatadi: inson faqat ibodat bilan cheklanmasdan, halol mehnat, ijtimoiy xizmat va mas'uliyat orqali ham jamiyatga foyda keltirishi lozim. Alisher Navoiy asarlarida adolat, insof, saxovat, halollik kabi qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi ma'naviy poydevor sifatida yoritiladi. U davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarda adolatning ustuvorligini ta'kidlab, "odamiylik" mezonini jamiyat barqarorligining markaziy sharti sifatida ko'radi. Navoiy merosida diniy-axloqiy qadriyatlar bilan dunyoviy boshqaruv mas'uliyati

uyg'unlashadi: axloqiy yetukliksiz hokimiyat ham, qonun ham jamiyatda kutilgan barqarorlikni ta'liq ta'minlay olmaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda qadriyatlar uyg'unligi masalasi ko'p konfessiyali jamiyatlarda bag'rikenglik, sekulyar boshqaruv, ijtimoiy integratsiya va ma'naviy xavfsizlik masalalari bilan uzviy bog'lanadi. Diniy qadriyatlarning insonparvarlik, mehr-oqibat va mas'uliyatga da'vat etuvchi jihatlari, dunyoviy qadriyatlarning esa huquqiy tenglik, erkinlik va qonun ustuvorligini ta'minlovchi mexanizmlari jamiyatda muvozanatni ushlab turadi. Shunday ekan, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasida murosali integratsiya modeli zarur: diniy qadriyatlar ma'naviy-axloqiy resurs sifatida, dunyoviy qadriyatlar esa institutsional va huquqiy kafolat sifatida bir-birini to'ldirishi lozim.

Sharq allomalari merosi va zamonaviy ilmiy qarashlar uyg'un tahlil qilinganda, jamiyat barqarorligining asosiy falsafiy sharti qadriyatlarning muvozanatli integratsiyasida ekani ayon bo'ladi. Bunda din jamiyatni axloqiy jihatdan birlashtiruvchi va ma'naviy yo'naltiruvchi kuch sifatida, dunyoviylik esa huquqiy tartib, erkinlik va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur masalaning chuqurroq o'rganilishi qadriyatlar siyosatini takomillashtirish, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim ilmiy-amaliy natijalar berishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida diniy va dunyoviy qadriyatlarning jamiyat barqarorligiga ta'siri falsafiy-taqqoshlama tahlil, konseptual umumlashtirish hamda tarixiy-mantiqiy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tahlil davomida qadriyatlar tizimi jamiyatning nafaqat ma'naviy-axloqiy hayotini, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, diniy qadriyatlar jamiyatda axloqiy me'yorlar, ijtimoiy mas'uliyat va birdamlikni shakllantiruvchi ichki tartibga soluvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Mehr-oqibat, adolat, halollik va vijdon kabi diniy qadriyatlar shaxs xulq-atvorini ichki nazorat asosida boshqarib, jamiyatda ijtimoiy ishonch va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Sharq falsafiy tafakkurida diniy qadriyatlarning tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati jamiyatni ichki yemirilishdan saqlovchi asosiy omil sifatida baholangan.

Shu bilan birga, tahlil natijalari dunyoviy qadriyatlarning jamiyat barqarorligidagi institutsional ahamiyatini ko'rsatdi. Huquqiy tenglik, qonun ustuvorligi, demokratiya va erkinlik kabi dunyoviy qadriyatlar jamiyatda tashqi tartib va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bu qadriyatlar shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarni me'yorlashtirib, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, faqat huquqiy mexanizmlarga tayanilgan jamiyatlarda ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishi mumkin, bu esa barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijalar shuni tasdiqladiki, diniy va dunyoviy qadriyatlarning qarama-qarshi qo'yilishi jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar, ma'naviy parokandalik va

ishonchsizlikni kuchaytiradi. Aksincha, ularning uyg'unlashuvi jamiyat hayotida muvozanatli tizimni shakllantiradi. Sharq allomalari qarashlari tahlili shuni ko'rsatdiki, Forobiy, Ibn Sino, Moturidiy, Beruniy, Navoiy va tasavvuf mutafakkirlarining g'oyalarida diniy-axloqiy tamoyillar dunyoviy boshqaruv, ilm-fan va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda talqin etilgan. Bu yondashuv jamiyat barqarorligini ta'minlashda qadriyatlar integratsiyasining tarixiy-falsafiy modelini ifodalaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qadriyatlar uyg'unligi jamiyat barqarorligiga uch asosiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, shaxs darajasida – ichki axloqiy nazorat va mas'uliyatni kuchaytirish orqali; ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlar darajasida – bag'rikenglik, o'zaro hurmat va fuqarolik birdamligini mustahkamlash orqali; uchinchidan, institutsional darajada – huquqiy tartib, adolat va ijtimoiy muvozanatni ta'minlash orqali. Ushbu uch darajaning uyg'un ishlashi jamiyatda barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Jamiyat barqarorligi diniy va dunyoviy qadriyatlardan birini mutlaq ustun qo'yish orqali emas, balki ularni o'zaro to'ldiruvchi va muvozanatlashtiruvchi tizim sifatida qaror toptirish orqali ta'minlanadi. Diniy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlasa, dunyoviy qadriyatlar ushbu poydevor ustida barqaror ijtimoiy-siyosiy tizimni shakllantiradi. Tadqiqot natijalari mazkur uyg'unlikni ta'minlash zamonaviy jamiyatda ijtimoiy totuvlik, barqaror taraqqiyot va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari jamiyat barqarorligini ta'minlashda diniy va dunyoviy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi muhim falsafiy va ijtimoiy omil ekanligini tasdiqladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, jamiyatda faqat diniy yoki faqat dunyoviy qadriyatlarga biryozlama tayanish ijtimoiy muvozanatning buzilishiga, ma'naviy bo'shliq yoki huquqiy formalizmga olib kelishi mumkin. Aksincha, ushbu qadriyatlarning o'zaro to'ldiruvchi va muvozanatlashtiruvchi tarzda uyg'unlashuvi barqaror taraqqiyot uchun zarur shart hisoblanadi. Diniy qadriyatlar jamiyatda axloqiy me'yorlar, vijdon, mas'uliyat va birdamlikni shakllantiruvchi ichki tartibga soluvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, shaxs xulq-atvorining ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi. Dunyoviy qadriyatlar esa huquqiy tenglik, qonun ustuvorligi, erkinlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan holda jamiyat hayotining institutsional barqarorligini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari ushbu ikki qadriyat tizimi bir-birini inkor etmay, balki jamiyat hayotida turli darajalarda o'zaro uyg'un holda amal qilishi lozimligini ko'rsatdi. Sharq allomalari merosi va zamonaviy falsafiy qarashlar tahlili shuni tasdiqladiki, diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligi tarixiy jihatdan shakllangan va o'z samarasini bergan model hisoblanadi. Forobiy, Ibn Sino, Moturidiy, Beruniy, Navoiy hamda tasavvuf mutafakkirlarining qarashlarida axloqiy poklik, adolat va ilmiy tafakkur bir butun tizim sifatida talqin qilinib, jamiyat barqarorligining falsafiy poydevori sifatida asoslangan. Umuman olganda, tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, jamiyat barqarorligini

mustahkamlash uchun diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasida murosali integratsiyani ta'minlash, ularning ijtimoiy funksiyalarini to'g'ri anglash va amaliyotda uyg'un qo'llash zarur. Mazkur yondashuv ijtimoiy totuvlik, ma'naviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Фан, 1993. – 320 б.
2. Ибн Сино Абу Али. Донишнома. – Тошкент: Фан, 1980. – 412 б.
3. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – 558 б.
4. Мотуридий Абу Мансур. Китоб ат-тавҳид. – Қоҳира: Дар ал-кутуб ал-илмийя, 1970. – 408 б.
5. Навоий Алишер. Махбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 272 б.
6. Нақшбанд Баҳовуддин. Рисолалар. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. – 160 б.
7. Гегель Г.В.Ф. Философия права. – Москва: Мысль, 1990. – 524 с.
8. Хабермас Ю. Между натурализмом и религией. – Москва: Весь Мир, 2011. – 336 с.
9. Тойнби А.Дж. Постигение истории. – Москва: Айрис-Пресс, 2001. – 640 с.